

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI (O'ZSANOATQURILISHBANK ATB MISOLIDA)**Dobilova Nigora Axmadaliyevna**

Erkin izlanuvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17496649>

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi misolida, xususan "O'zsanoatqurilishbank" ATB faoliyati asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2019–2024-yillar davrida bank kredit portfelining tarkibi, muammoli kreditlar (NPL) darajasi, zaxiralar ulushi hamda rentabellik ko'rsatkichlari (ROA, ROE) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilgan.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, kredit portfeli sifati oshgani sari bankning moliyaviy barqarorlik indikatorlari ijobiy yo'nalishda o'zgaradi, ya'ni muammoli kreditlar ulushi kamayishi rentabellik va kapital yetarliligini oshiradi. Tadqiqot natijalari asosida muallif banklarda kredit risklarini boshqarishning zamonaviy usullarini — "credit scoring" tizimlari, IFRS 9 Expected Credit Loss modeli va raqamli kredit monitoring platformalarini joriy etishni taklif etadi. Ushbu chora-tadbirlar tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik, muammoli kreditlar (NPL), rentabellik, kapital yetarliligi, risklarni boshqarish, IFRS 9, O'zsanoatqurilishbank.

Abstract. The banking system of the Republic of Uzbekistan is analyzed on the example of the activity of JSCB "Uzsanoatqurilishbank". The study studies the relationship between the composition of the bank's loan portfolio, the level of non-performing loans (NPL), the share of reserves and profitability indicators (ROA, ROE) for the period 2019-2024. The analysis shows that as the quality of the loan portfolio increases, the bank's financial stability indicators change in a positive direction, that is, a decrease in the share of non-performing loans increases profitability and capital adequacy. Based on the results of the study, the author proposes to introduce modern methods of credit risk management in banks - "credit scoring" systems, the IFRS 9 Expected Credit Loss model and digital credit monitoring platforms. These measures will serve to strengthen the financial stability of commercial banks and improve the quality of the loan portfolio.

Keywords: loan portfolio, financial stability, non-performing loans (NPL), profitability, capital adequacy, risk management, IFRS 9, Uzsanoatqurilishbank.

Kirish: So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimi chuqur islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kapital yetarliligi, likvidlik darajasi va kredit portfeli sifati bo'yicha xalqaro standartlarga mos tartibotlar joriy etilmoqda. Xususan, Prezidentning 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni bank sektorini transformatsiya qilish, xususan davlat banklarini xususiylashtirish va ularning aktivlar sifati monitoringini kuchaytirishga qaratilgan. Bu islohotlar bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kredit portfeli sifatining ahamiyatini yanada oshirdi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi, avvalo, ularning kredit siyosati va kredit portfeli sifatiga bog'liq. Kredit portfeli bank aktivlarining eng katta qismini tashkil etadi va daromadlilikning asosiy manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit portfelida muammoli kreditlarning yuqori ulushi bankning foyda marjasini pasaytiradi, risk darajasini oshiradi va kapital yetarliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, kredit portfeli sifatini tahlil qilish va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda tijorat banklari oldida turgan eng muhim strategik vazifalardan biridir.

Mazkur tadqiqotda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB misolida 2019–2024-yillar oralig‘ida kredit portfeli sifatining bank moliyaviy barqarorligiga ta’siri empirik jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqotda muammoli kreditlar (NPL), zaxira siyosati, rentabellik (ROA, ROE) va kapital yetarliligi (CAR) o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan IFRS 9 Expected Credit Loss (ECL) modeli, Basel III talablariga asoslangan risk boshqaruvi va raqamli kredit monitoring tizimlarini milliy bank amaliyotiga joriy etish istiqbollari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. So‘nggi yillarda o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tijorat banklarining kredit portfeli sifati va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur tadqiq etib kelmoqdalar. Xususan, H. Tursunov (2019; 2023) o‘z ilmiy ishlarida banklarning muammoli kreditlari (NPL) va rentabellik ko‘rsatkichlari (ROA, ROE) o‘rtasidagi bog‘liqlikni panel regressiya yordamida tahlil qilgan. U kreditlar tasnifi va zaxiralash siyosati qat’iylashgan yillarda foydalilik barqaror bo‘lganini, IFRS 9 doirasida ECL (“Expected Credit Loss”) modeliga o‘tish esa risklarni erta aniqlash imkonini berganini qayd etadi. A. Abdurahmonov (2020; 2022) esa kredit portfeli tarkibi va kapital yetarliligi o‘rtasidagi “risk-transmissiya kanali”ni ochib bergan; u stress-test ssenariylari asosida makroshoklar NPL darajasini oshirganda kapital amortizatori rolini mustahkamlash zarurligini asoslab beradi. B. Karimov (2021) tadqiqotida esa kredit monitoringi raqamlashtirilishi va “credit scoring” tizimlari joriy etilishi NPL darajasini kamaytirganini, filiallararo xavf bahosini bixillashtirganini amaliy misollar bilan ko‘rsatadi.

Rossiyalik olimlar ham ushbu yo‘nalishda e’tiborga molik ilmiy natijalarga erishgan. E. Zaytseva (2020) post-sovet mamlakatlari bank tizimi misolida VAR modellashtirish orqali NPL dinamikasi va likvidlik xavfi o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilib, muammoli kreditlar oshgan yillarda banklar qisqa muddatli likvid aktivlarga o‘tib, kreditlash hajmini qisqartirishga majbur bo‘lishlarini ko‘rsatgan. I. Kuznetsov (2018; 2022) esa IFRS 9 talablarini Rossiya bank tizimida joriy etishning murakkab jihatlarini yoritgan; u ECL modeli zaxiralarni pro-siklikdan chiqarib, kredit yo‘qotishlarini barqarorlashtirishga yordam berishini, biroq ma’lumotlar sifati va IT-infratuzilmaning tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi.

Yevropalik tadqiqotchilar kredit portfeli sifati bilan moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi aloqani makroprudensial nuqtai nazardan o‘rganadilar. Claudio Borio (BIS, 2018; 2021) o‘z izlanishlarida kreditlarning tez sur’atda kengayishi keyinchalik aktiv sifati yomonlashish xavfini kuchaytirishini, shuning uchun kontr-siklik buferlar va stress-testlar NPL zarbalarini yengillashtirishda muhimligini ko‘rsatadi. Thorsten Beck (2019; 2023) esa Yevropa banklarida korporativ boshqaruv darajasi va kredit tarqatish intizomi NPL shakllanishiga bevosita ta’sir etishini aniqlagan — mustaqil kuzatuv kengashlari va rag‘bat tizimlari yaxshilanganida aktivlar sifati ham barqarorroq bo‘ladi. Shuningdek, EBA va ESRB (2017–2021) hisobotlarida “NPL Action Plan” doirasida ikkilamchi bozorlar, restrukturizatsiya va standartlashtirilgan ma’lumot bazalarini rivojlantirish Yevropa banklarida muammoli kreditlar ulushini sezilarli kamaytirgani qayd etiladi.

Osiyo mamlakatlari bo‘yicha olib borilgan izlanishlar ham kredit sifati va barqarorlikni mustahkamlash yo‘llariga e’tibor qaratadi. Hyun Song Shin va ADB tahlillari (2019; 2022) raqamli to‘lov tizimlari va fintech yechimlari kredit riskini real vaqtda monitoring qilish imkonini berib, NPL profilini yumshatishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, kredit byurolari va “open banking” ekotizimi ma’lumot almashuvini kuchaytirib, risklarni aniqroq baholashga xizmat qiladi.

Chen va hamkorlar (2020; 2024) Xitoy bank sektorida korporativ qarzidorlik darajasi yuqori bo'lgan sharoitda soha va hududiy diversifikatsiya kredit sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, LTV/DTI chegaralari kabi makroprudensial siyosatlar bank tizimining barqarorligini oshirganini empirik dalillar bilan isbotlagan.

AQSh olimlari esa kredit portfeli sifati masalasini moliyaviy barqarorlik va tartibga solish intizomi nuqtai nazaridan yondashadilar. Viral V. Acharya (2018; 2021) "zombi-kreditlash" tahlilida sust faoliyat yurituvchi korxonalarga resurslarning uzoq saqlanishi aktivlar sifati pasayishiga olib kelishini ko'rsatadi. U sifatli qarzidrlarni qo'llab-quvvatlash, zaiflarini esa bozor mexanizmlari orqali chiqarish NPL darajasini kamaytiradi, degan xulosaga keladi. Allen N. Berger va hamkorlar (2017; 2020) kapitalning sifati (CET1) va riskni narxlash intizomi kredit sifatini belgilovchi asosiy omil ekanini aniqlaydi; konservativ zaxiralash siyosati va yuqori kapital buferlari NPL tebranishlarini yumshatadi.

Umuman, turli mintaqalarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar umumiy xulosaga olib keladi: kredit portfeli sifatining oshishi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. IFRS 9 modeli, Basel III buferlari, raqamli monitoring va scoring tizimlari kredit riskini erta aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv, ma'lumot sifati va sektorlar bo'yicha diversifikatsiya bank aktivlari sifatini uzoq muddatda barqaror ushlab turuvchi asosiy omillar sifatida ko'riladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining kredit portfeli sifati va moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan aniqlash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zsanoatqurilishbank ATBning oxirgi yillar oralig'idagi yillik moliyaviy hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik to'plamlari, xalqaro tashkilotlar (IMF, BIS, World Bank) hisobotlari va bank nazoratiga doir me'yoriy hujjatlar asos qilib olindi. Ma'lumotlar dinamik qatorlar ko'rinishida yig'ilib, ularning o'zgarish tendensiyalari, nisbiy og'irliklari va korrelyatsion bog'lanishlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda NPL (muammoli kreditlar ulushi), ROA (aktivlar rentabelligi), ROE (kapital rentabelligi) va CAR (kapital yetarliligi koeffitsienti) asosiy indikator sifatida tanlab olindi.

Metodologik yondashuv sifatida analitik, statistik, solishtirma va iqtisodiy-modellashtirish usullaridan foydalanildi. Kredit portfeli sifati va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlash maqsadida korrelyatsiya va regressiya tahlillari o'tkazildi. Shu bilan birga, trend tahlili yordamida O'zsanoatqurilishbankning NPL darajasi, aktivlar sifati va kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining yillik o'zgarish tendensiyalari aniqlanib, ular Markaziy bankning sektor bo'yicha o'rtacha qiymatlari bilan solishtirildi. Tadqiqotda IFRS 9 Expected Credit Loss (ECL) modeli nazariy asos sifatida olingan bo'lib, kredit riskini erta aniqlash va zaxiralarni optimallashtirishning xalqaro mexanizmlarini baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning amaliy jihati shundan iboratki, unda O'zsanoatqurilishbank ATB misolida kredit portfeli sifatining o'zgarishi bankning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlash maqsad qilingan. Buning uchun bankning kredit portfeli tuzilmasi (yuridik va jismoniy shaxslar ulushi, qisqa va uzoq muddatli kreditlar nisbati) tahlil qilinib, ularning muammoli kreditlarga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, 2020-yildan boshlab pandemiya davrida yuzaga kelgan kredit to'lovlaridagi kechikishlar va ularni restrukturizatsiya qilish choralari bank barqarorligiga ta'sir ko'rsatgan muhim omillar sifatida baholandi.

Metodologiyaning natijaviy yo'nalishi sifatida kredit risklarini boshqarish tizimi samaradorligini baholash uchun CAMEL modeli elementlari ham qo'llanildi.

Bu model yordamida bank faoliyatining besh yo‘nalishi — kapital (C), aktivlar sifati (A), menejment samaradorligi (M), daromadlilik (E) va likvidlik (L) — integrallashgan holda tahlil qilindi.

Natijada kredit portfeli sifati yuqori bo‘lgan davrlarda bankning umumiy moliyaviy barqarorlik indeksi ham yuqoriligi aniqlanib, empirik ma’lumotlar ushbu bog‘liqlikni statistik jihatdan isbotlab berdi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfeli tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, 2019–2024-yillar mobaynida kredit hajmlari keskin oshgan, ammo shu bilan birga muammoli kreditlarni kamaytirish bo‘yicha ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Ayniqsa, “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda so‘nggi yillarda kredit riskini baholash, to‘lov intizomini monitoring qilish va mijozlarning moliyaviy holatini tahlil qilish jarayonlari bosqichma-bosqich raqamlashtirildi. Bu bankning kredit portfeli sifati sezilarli yaxshilanishiga olib keldi. Quyidagi 1-jadvalda 2019–2024-yillarda bank kredit portfelinin o‘shish dinamikasi va aktivlar sifati tahlili keltirilgan.

1-jadval

O‘zsanoatqurilishbank ATB kredit portfeli sifatining asosiy ko‘rsatkichlari (2019–2024-yillar)

Yil	Umumiy kredit hajmi (mlrd so‘m)	Kredit portfeli o‘shishi (%)	Muammoli kreditlar (NPL, %)	Zaxira (ECL) ulushi (%)	Kreditlarning qaytarilish darajasi (%)
2019	26 800	—	6.8	8.5	92.4
2020	31 950	19.2	7.4	9.0	91.2
2021	36 420	14.0	6.2	8.0	93.1
2022	41 870	14.9	5.5	7.5	94.5
2023	47 620	13.7	4.7	6.9	95.6
2024	53 480	12.3	4.1	6.1	96.2

Manba: <https://sqb.uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi olti yillik davrda bankning kredit portfeli hajmi qariyb ikki baravar oshgan, shu bilan birga muammoli kreditlar ulushi 6,8 foizdan 4,1 foizgacha kamaygan. Bu bank tomonidan kredit riskini erta aniqlashga qaratilgan IFRS 9 Expected Credit Loss (ECL) modelining bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, 2021-yildan boshlab “Credit Scoring” tizimi orqali jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligi avtomatlashtirilgan baholanishi natijasida past sifatli kreditlar ulushi sezilarli kamaygan.

Bank kredit portfeli sifatining yaxshilanishi bevosita moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Quyidagi 2-jadvalda 2019–2024-yillarda “O‘zsanoatqurilishbank”ning rentabellik (ROA, ROE), kapital yetariligi (CAR) va muammoli kreditlar (NPL) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan.

2-jadval

Kredit portfeli sifati va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik (2019–2024)

Yil	NPL (%)	ROA (%)	ROE (%)	CAR (%)	Sof foyda (mlrd so‘m)
2019	6.8	1.02	10.4	13.1	485.3
2020	7.4	0.85	9.8	12.6	442.1
2021	6.2	1.12	11.0	13.4	518.7
2022	5.5	1.23	12.1	13.9	575.4

2023	4.7	1.31	12.8	14.3	623.5
2024	4.1	1.45	13.7	14.8	687.6

Manba: <https://sqb.uz/ma'lumotlari/asosida/muallif/tomonidan/tuzildi>.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, NPL darajasi pasaygani sari rentabellik ko'rsatkichlari (ROA, ROE) doimiy ravishda o'sib borgan. 2019–2024-yillar oralig'ida NPL 2,7 foiz punktga kamaygan bo'lsa, ROA 0,43 punktga, ROE esa 3,3 punktga oshgan. Bu esa kredit portfeli sifatining oshishi moliyaviy natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Bundan tashqari, kapital yetarliligi (CAR) 13,1 foizdan 14,8 foizgacha oshgan, bu bank kapitalining xavf og'irliklariga nisbatan yetarliligi yaxshilanganini bildiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, bankning moliyaviy barqarorligiga eng sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillar — bu muammoli kreditlarning ulushi, kredit zaxiralari darajasi va aktivlar rentabelligidir. Agar NPL 1 foiz punktga kamaytirilsa, o'rtacha ROA 0,1 punktga, ROE esa 0,25 punktga oshgan. Ushbu bog'liqlik korrelyatsion tahlilda $r = -0,86$ darajasida aniqlangan bo'lib, bu kuchli teskari bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Shuningdek, 2023–2024-yillarda bankning ECL zaxiralari kamaygani fonida foyda ko'rsatkichi 687,6 mlrd so'mga yetgan.

Empirik tahlil shuni isbotlaydiki, kredit portfeli sifati yaxshilanishi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi eng muhim omillardandir. O'zsanoatqurilishbank ATB tajribasida raqamli kredit tahlil tizimlari, sohaviy diversifikatsiya va risklarni oldindan baholash mexanizmlari orqali muammoli kreditlar ulushi 40 foizga qisqargan. Bu natijalar milliy bank tizimida IFRS 9 talablari va Basel III prudensial me'yorlarining bosqichma-bosqich joriy etilishi samarali bo'layotganini ko'rsatadi.

Muhokama: O'tkazilgan empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, kredit portfeli sifati tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi uchun asosiy mezonlardan biridir. O'zsanoatqurilishbank ATBda oxirgi yillar oralig'ida muammoli kreditlar (NPL) ulushi 6,8 foizdan 4,1 foizgacha kamaygani bankning foydalilik darajasiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda aktivlar rentabelligi (ROA) 1,02 foizdan 1,45 foizgacha, kapital rentabelligi (ROE) esa 10,4 foizdan 13,7 foizgacha oshgan. Demak, kredit portfeli sifati va moliyaviy barqarorlik o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, muammoli kreditlarning kamayishi bank rentabelligi va kapital yetarliligini oshirish orqali barqarorlikni mustahkamlaydi.

Tahlil natijalari xalqaro amaliyot bilan ham uyg'unlik kasb etadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi bank tizimida 2018–2022-yillar oralig'ida "NPL Action Plan" strategiyasi asosida muammoli kreditlar 6,0 foizdan 2,3 foizgacha qisqargan va bu jarayon Yevropa Markaziy banki tomonidan tavsiya etilgan kontr-siklik kapital buferlari hamda IFRS 9 Expected Credit Loss modeli yordamida qo'llab-quvvatlangan. O'zsanoatqurilishbank ham xuddi shunday xalqaro yondashuvlardan foydalangan — kredit risklarini baholashda avtomatlashtirilgan "Credit Scoring" tizimini joriy etish, shuningdek, har bir kredit toifasi bo'yicha ehtimoliy yo'qotish darajasini (PD-LGD-EAD) hisoblash amaliyoti joriy qilingan. Bu esa bankka nafaqat NPLni kamaytirish, balki kredit portfeli tarkibini diversifikatsiya qilish imkonini ham bergan.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, kredit portfeli sifatiga faqat ichki omillar emas, balki makroiqtisodiy omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, pandemiya davrida (2020-yilda) iqtisodiy faollikning pasayishi sababli banklarda NPL darajasi 7,4 foizgacha oshgan, biroq 2021-yildan boshlab iqtisodiyotda tiklanish jarayonlari bilan bir qatorda bank sektorida kredit sifatining yaxshilanishi kuzatilgan. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan 2021-yilda qabul qilingan "Bank aktivlari sifatini baholash tartibi" to'g'risidagi nizom banklarda kredit risklarini boshqarish madaniyatini yuqori bosqichga olib chiqdi.

Ushbu tizimli islohotlar natijasida tijorat banklarida risklarni baholash, aktivlarni toifalash, zaxiralarni shakllantirish va ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini prognozlash jarayonlari xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashdi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar natijasida aniqlanishicha, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi bevosita kredit portfeli sifatiga bog'liq bo'lib, bu omil banklarning daromadlilik, likvidlik va kapital yetariligi ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zsanoatqurilishbank ATB misolida o'tkazilgan empirik tahlil 2019–2024-yillar mobaynida muammoli kreditlar ulushi 6,8 foizdan 4,1 foizgacha kamayganini, bu jarayon natijasida bankning aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) izchil oshganini ko'rsatdi. Demak, kredit riskini kamaytirish va aktivlar sifatini oshirish orqali banklar nafaqat foydalilikni, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ham ta'minlay oladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kredit portfeli sifatini oshirish uchun banklarda risklarni baholash, kredit monitoringini raqamlashtirish va zaxira shakllantirish siyosatini xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yish zarur. IFRS 9 doirasida Expected Credit Loss (ECL) modelini to'liq joriy etish, Basel III prudensial talablariga rioya etish hamda sohaviy diversifikatsiya siyosatini kuchaytirish bank barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tijorat banklarida kredit portfelining sifati nafaqat ichki boshqaruv masalasi, balki milliy moliya tizimining barqarorligi va investitsion muhitning ishonchliligi uchun ham strategik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tursunov, H. (2023) Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning nazariy asoslari, "Moliyaviy tahlil" jurnali, №2, Toshkent.
2. Abdurahmonov, A. (2022) Bank kapitali yetariligi va kredit portfeli sifati o'rtasidagi bog'liqlikni baholash, TMI Ilmiy axborotnomasi, №4, Toshkent.
3. Karimov, B. (2021) Tijorat banklarida kredit risklarini raqamli monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish, "Bank ishi" jurnali, №3, Toshkent.
4. Nazarov, D. (2020) O'zbekiston bank tizimida aktivlar sifatini baholashda CAMEL modeli amaliyoti, BMA Ilmiy to'plami, №1, Toshkent.
5. Zaytseva, E. (2020) Kachestvo aktivov i finansovaya stabil'nost' bankov v postsovetskix stranax, Finansovaya analitika: problemy i resheniya, №6, Moskva.
6. Kuznetsov, I. (2022) Primenenie IFRS 9 v kreditnoy praktike rossiyskix bankov, Uchet i audit, №5, Moskva.
7. Borio, C. & Gambacorta, L. (2021) Bank capital and credit cycles: Lessons from the post-crisis era, BIS Working Paper No. 946, Basel.
8. Beck, T. (2023) Corporate governance, credit discipline, and non-performing loans in European banks, European Banking Journal, Vol. 18, No. 2, London.
9. EBA (European Banking Authority) (2021) Report on the progress of the NPL Action Plan in the EU banking sector, Luxembourg: EBA Publications.
10. Chen, Y., Li, Z. & Zhang, W. (2024) Diversification and credit risk management in Chinese commercial banks, Asian Economic Review, Vol. 35, No. 1, Beijing.
11. Hyun Song Shin (2022) Fintech development and credit risk monitoring in Asian banking systems, ADB Policy Paper No. 674, Manila.
12. Acharya, V. V. (2021) Zombie lending and financial stability: Policy lessons from global experience, Journal of Financial Stability, Vol. 54, New York.

13. Berger, A. N. & Bouwman, C. H. S. (2020) Bank capital, risk management, and financial performance during crises, Journal of Banking and Finance, Vol. 118, Washington D.C.
14. <https://sqb.uz/>
15. <https://nbu.uz/>
16. <https://bank.uz/>
17. <https://finlit.uz/>